


V. KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK

2022- yilning yanvar–sentabr holatiga ro‘yxatga olingan jami kichik tadbirkorlik (biznes) subyektlarining soni 26 906 tani tashkil qildi. Viloyat bo‘yicha kichik tadbirkorlik korxona va tashkilotlarining soni Urganch shahrida 5 231 ta, Xiva shahrida 2 274 ta, Xiva tumanida 2 040 ta, Urganch tumanida 3 084 ta, Xonqa tumanida 2 032 ta, Yangiariq tumanida 1 483 ta, Hazorasp tumanida 1 621 ta, Gurlan tumanida 1 843 ta, Qo‘suko‘pir tumanida 2 062 ta, Bog‘ot tumanida 1 750 ta, Shovot tumanida 1 542 ta, Tuproqqa‘l’ a tumanida 639 ta va Yangibozor tumanida 1 304 tani tashkil qildi.


Yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari sonining iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi 2022-yil yanvar – sentabr holatiga (jamiga nisbatan foizda)



Eng ko‘p kichik biznes subyektlari savdo sohasida jami tashkil etilgan subyektlarning (36,0 foizi), sanoat tarmog‘ida (22,3 foiz), qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida (17,0 foiz), yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlarda (5,0 foiz) tashkil etilgan.

2022-yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) hududlar bo‘yicha eng ko‘p Urganch shahrida 33,1 birlikda, Xiva shahrida 22,2 birlikda, Urganch tumanida 13,8 birlikda, Yangibozor tumanida 13,7 birlikda, Xiva tumanida 12,6 birlikda, Yangiariq tumanida 11,5 birlikda, Gurlan tumanida 10,8 birlikda Tuproqqal'a tumanida 10,5 birlikda, Qo‘siko‘pir tumanida 10,5 birlikda, Xonqa 10,0 birlikda bo‘lib, o‘rtacha ko‘rsatkich 9-7 birlik oralig‘ida Shovot, Bog‘ot, Hazorasp tumanlarida ushbu ko‘rsatkich past bo‘lib qolmoqda.

2022- yilning yanvar-sentabr oylarida hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda)



Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni
(birlik, fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)

	2022- yil 1- oktabr holatiga ro'yxatga olingan	2022- yil yanvar - sentabr	
		tashkil topdi	tugatildi
Viloyat bo'yicha:	26 906	4 491	898
<i>shaharlar:</i>			
Urganch	5231	591	201
Xiva	2274	271	40
<i>tumanlar:</i>			
Bog'ot	1750	416	44
Gurlan	1843	362	64
Qo'shko'pir	2062	389	75
Urganch	3084	465	83
Hazorasp	1621	367	61
Tuproqqa'l'a	639	126	29
Xonqa	2032	297	57
Xiva	2041	305	51
Shovot	1542	365	32
Yangiariq	1483	310	102
Yangibozor	1304	227	59

2022-yil yanvar-sentabr oylarida viloyatda ro'yxatga olingan yangi kichik tadbirkorlik (biznes) subyektlari soni 4 491 tani tashkil topgan bo'lib, bu ko'rsatkich Urganch shahrida 591 ta, Urganch tumanida 465 ta, Xiva shahrida 271 ta, Xonqa tumanida 297 ta, Qo'shko'pir tumanida 389 ta, Hazorasp tumanida 367 ta, Xiva tumanida 305 ta, Shovot tumanida 365 ta, Yangiariq tumanida 310 ta, Gurlan tumanida 362 ta, Bog'ot tumanida 416 ta, Yangibozor tumanida 227 ta va Tuproqqa'l'a tumanida 126 tani tashkil qildi.

2022- yil yanvar-sentabr oylarida yalpi hududiy mahsulotning 71,9 foizi (2021- yil yanvar-sentabrda 75,2 foiz) kichik biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqarildi.

2022- yilning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik (biznes) subyektlari tomonidan:

- sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 2123,4 mlrd. so‘mni (jami sanoat ishlab chiqarishining 16,2 foizi) tashkil qildi;

- 16205,0 mlrd. so‘mlik qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaliklari mahsulotlari ishlab chiqarilgan (ko‘rsatilgan xizmatlar) bo‘lib, o‘sish sur’ati 98,4 foizni (qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaliklari yalpi mahsulotining 102,6 foizi) tashkil qildi;

- 3812,0 mlrd.so‘mlik investitsiyalar (umumiyligi investitsiyalarha jining 56,2 foizi) o‘zlashtirildi va 2021- yilning yanvar- sentabriga nisbatan 100,6 foizni tashkil qildi;

- 3265 ,6 mlrd.so‘mlik qurilish ishlari (qurilish ishlari umumiyligi hajmining 90,7 foizi) bajarildi va 2021- yilning yanvar- sentabriga nisbatan 101,6 foizni tashkil qildi;

- avtomobil transporti yuk aylanmasining 104,8 foizga (viloyat jami avtomobil transporti yuk aylanmasining 82,8 foizi), yo‘lovchi aylanmasining esa 103,9 foizga (umumiyligi yo‘lovchi aylanmasining 96,1 foizi) tashkil qildi;

- chakana tovar aylanmasi umumiyligi hajmining 81,0 foizi yoki 7276,7 mlrd. so‘mi (o‘sish 104,7 foiz) va xizmatlar umumiyligi hajmining, mos ravishda 62,8 foizi yoki 4637,6 mlrd. so‘mi (o‘sish 110,7 foiz) shakllantirildi;

- 115,1 mln. AQSh dollari (umumiyligi eksport hajmining 57,8 foizi) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) eksport qilindi. 133,6 mln. AQSh dollari (umumiyligi import hajmining 34,0 foizi) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) import qilindi.

**Mahsuloti (ishlar, xizmatlar) umumiyligi hajmidagi kichik tadbirkorlik
subyektlarining ulushi
(2022- yilning yanvar- sentabrida)**

	<i>Kichik tadbirkorlik subyektlari mahsuloti (ish, xizmat) hajmi, mlrd.so‘m</i>	<i>Mahsuloti (ishlar, xizmatlar) umumiyligi hajmidagi kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi, % hisobida</i>
Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	16205,0	98,4
Sanoat	2123,4	16,2
Qurilish	3265,6	90,7
Chakana savdo	7276,7	81,0
Yuk tashish, mln tn.	25,1	95,1
Yo‘lovchi tashish, mln.kishi	308,4	94,6
Eksport, mln. AQSh doll.	115,1	57,8
Import, mln. AQSh doll.	133,6	34,0

**Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi
(foizda)**

